

CHANG CHOLG‘USINING BADIY VA TEXNIK IMKONIYATLARI

Tursunov Shodiyor Tolibjon o‘g‘li

Namangan davlat pedagogika instituti

Musiqqa ta’limi va san’at yo‘nalishi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqola chang cholg‘usining (dulcimer) O‘zbekistondagi tarixiy rivoji, texnik takomillashtirilishi va ijrochilik uslublarini yoritadi. 1930-yillarda chang cholg‘usining hajmi ixchamlashtirilib, diapazoni kengaytirilgani va xromatik tovush qatoriga moslashtirilgani haqida so‘z yuritiladi. Shuningdek, chang cholg‘usining turli turlari — pikkolo chang, tenor chang va bas chang — yaratilgani hamda ularning umumiy diapazoni 5 oktavani tashkil etgani qayd etiladi. Maqola chang cholg‘usining jarangdor tembri va texnik imkoniyatlari tufayli ansambllar, xalq cholg‘ulari orkestrlari va yakkanavoz cholg‘u sifatida qo‘llanilishini ta’kidlaydi. Chang ijrochiligida urma zarb, cho‘p chertmak, sakratma zarb, tebratma, bog‘lama kabi ijro uslublarining qo‘llanilishi va ularning ijro amaliyotidagi o‘rni ko‘rsatib o‘tilgan. 1960-yillarda cholg‘uning tovush diapazoni yana kengaytirilib, texnik imkoniyatlari oshirilgani haqida ham ma’lumot beriladi. Ammo bu jarayon davomida cholg‘uning milliy tarovati va jozibasiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan tajribalar mavjudligi ham qayd etilgan. Maqolada chang cholg‘usining O‘zbekistondagi mohir ijrochilari, ularning ijodiy faoliyati va cholg‘uga qiziqayotgan yoshlarning ko‘payib borayotgani alohida ta’kidlangan. Shuningdek, maqom asarlarini ijro etishda chang cholg‘usining o‘rni va imkoniyatlari ham yoritiladi. Ushbu maqola chang cholg‘usi bilan bog‘liq tadqiqot va ijodiy faoliyat uchun muhim ilmiy va amaliy manba hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: Musiqqa, cholg‘u, chang, ijro, orkestr, san’at, diapazon, amaliyot.

1930-yillardayoq changning tuzulishiga qator o‘zgartirishlar kiritildi: uning hajmi ixchamlashtirilib diapazoni oshirildi. Ayrim xalq sozandalari chang tovushlariga qo‘shimcha tovushlar kiritishdi. A.Kevxays, S.Didenko va A.Petrosyanslar to‘liq xromatik tovush qatorli, birinchi oktavadagi *do* dan uchinchi oktavadagi *re* gacha bo‘lgan chang yaratdilar. Ana shu chang asosida keyinchalik dastlabki xromatik changlar tayyorlanib, ulardan o‘zbek xalq filarmoniyasining xalq cholg‘ulari orkestrida, Hamza nomli musiqqa bilim yurtining chang sinflarida foydalanildi. Changni takomillashtirish ishi shu bilan to‘xtab qolmadi. O‘zbekiston respublikasi Madaniyat ishlari vazirligi va Toshkent davlat konservatoriyasi tasarrufidagi eksperimental loyihalar laboratoriya 1943-yildan buyon o‘zbek xalq cholg‘u asboblari takomillashtirish ustida davomli ish olib bormoqda. Changning diapazoni yanada kengaytirilib, kichik oktava *sol* dan uchinchi oktava *fa* diyez yoki *sol* diyez gacha kengaytirildi. Bundan tashqari,

torlarning tovushini singdiruvchi tepki mexanizm yaratiladi. Chang bambukdan ishlangan 2ta chop yordamida chalinadi.³³

Takomillashtirilgan changning asosiy turi bo'yicha quyidagi changlar yaratilgan.

1. Pikkolo chang - diapazoni birinchi oktava *do* dan uchinchi oktava *lya* gacha.

2. Tenor chang - diapazoni katta oktavadagi *sol* dan ikkinchi oktava *mi* gacha va kichik oktava *do* dan birinchi oktava *sol* gacha.

3. Bas chang- diapazoni katta oktavadagi *do* dan kichik oktava *sol* gacha.

Shunday qilib, yangi yaratilgan chang turlarining umumiy diapazoni 5 oktavani tashkil etadi. Jarangdor tembr, keng dinamik va texnik imkoniyatlari tufayli turli ansambl, xalq cholg'ulari orkestri tarkibida hamda yakkanavoz cholg'u sifatida keng tarqalgan. Hozirda O'zbekiston davlat konservatoriyasida "Changchilar" ansambli mavjud. Badiiy rahbarimiz va ustozimiz dotsent Ahadjon Mamadaliyev bo'ladilar. O'zbekistonda mohir chang ijrochilaridan Matyusuf Xarratov, Fozil Xarratov, Ro'zimatxon Isaboyev, Baxtiyor Aliyev, Fahriddin Sodiqov, Ahmad Odilov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Fazilat Shukurova, T. Otaboyev, T.Sobirov va boshqalar tanilgan. Shu o'rinda Chang cholg'usida tovush chiqarish yo'llariga to'xtalamiz:

1. Urma zarb - bu belgi boshqa har xil tovush chiqarish yo'llaridan keyin ishlatiladi.

2. Cho'p chertmak - (pissikato kol legno) - cho'pning orqa yassi qismi bilan torlarni chertish.

3. Taqillatish - (kol legno) - cho'pning orqa yassi qismi bilan torlarni urib taqillatish.

4. Sakratma zarb - chang torlariga cho'plarni zarbona kaltagina uzib, sakratib ijro etish.

5. Bo'g'ma stakkatto - (surdinkali stakkatto) - cho'pni zarbona tashlangandan so'ng jaranglab turgan chang torlarini ikkinchi bo'sh qo'lning o'rta barmog'i bilan tezda bosib so'ndirish.

6. Tebratma - (vibratsiya) - cho'p chertmakdan so'ng jaranglab turgan torlarning xarrak ustidan o'tgan qismini bo'sh qo'lning o'rta barmog'i bilan bosib, nota uzunligiga qarab davomli tebrantirish.

7. Cho'p sirg'antirish (glissando kol legno) - cho'pning past yalang qismi bilan torlardan - torlarga, yuqori yoki pastga chizib sirg'antirish.

8. Dona zarb - (detashe) - torlarga birin - ketin dona - dona tashlash.

³³ A.Petrosyans.A. Odilov."Chang darsligi" -T.: 1976 y

9. Rez - (tremolo) - cho‘p zarblarini birin - ketin maydalab uzluksiz almashinib tez ijro etish.

10. Bog‘lama - (legato) - tovushlarni muloyim holatda torlardan torlarga uzluksiz tekis o‘tishi.

11. Cho‘p - (tremolo). Cho‘plarning pastki yalang qismi bilan birin - ketin tez maydalab uzluksiz ijro etish.

Shu bilan birga, dastlab chang ijrochiligida qo‘llanilmagan va hozirgi kunda noyob tovush hosil qilish uslubi hisoblangan *vibrato pizzicato collegnoni* (jaranglab turgan torning yon qatoriga tutashgan qismini barmoq bilan asta bosib sadolantirish) ham ijro etish mumkin.

Changni tiniq sozlash va unda ijro etish, shuningdek, o‘quvchining absolyut eshitish qobiliyatini kun sayin o‘shishiga, barcha intervallarni, ya‘ni - tovush oraliqlarini toza aniqlash qobiliyatini o‘stirishga alohida ahamiyat bermoq lozim. Ijrochilik uslublari musiqa cholg‘ulardagi muhim ijrochilik vositasi bo‘lib, ular ikki tomonlama bajariladi. Agar birinchi holda tovush chiqarish uslublari, deb atasak, ikkinchi holda ta’sirchan vosita, deb hisoblaymiz.

Changning texnik va jarangdorligi, betakrorligi tufayli O‘zbekiston kompozitorlari hamda bastakorlaridan chang uchun maxsus asarlar chang sinfi repertuarini boyitmoqda. Chang cholg‘usida nafaqat texnik balkim, o‘zbek maqom asarlarining betakror ijro etilishi insonlarni o‘ziga jalb qiladi. Hozirgi kunda o‘tgan yillarga nisbatan bu cholg‘u ijrosiga qiziqayotgan yoshlar ko‘paymoqda. Ammo ba’zi hollarda san’atga qiziqishi yo‘qolgan yoshlarni ham uchratish mumkin. Lekin san’at insonni yaxshi hayolot olamiga olib kiradi.

Keyingi davr ijro amaliyotiga keng ko‘lamli jahon mumtoz asarlarini kirib kelishi, musiqa cholg‘ularining tovush ko‘lamini yanada kengaytirishga turtki bo‘ldi. Chang cholg‘usining baland pardalariga qo‘shimcha torlar qo‘shilib, cholg‘uning sadolanish ko‘lami “sol” kichik oktavadan “sol” III oktavagacha yetkazildi. Chang cholg‘usining bu namunasi musiqa amaliyotida keng ommalashdi va o‘z o‘rniga ega bo‘ldi. Biroq, shunga qaramay negadir cholg‘uning yuqori registrini qo‘shimcha pardalar yordamida kengaytirish tajribalari davom etdi.³⁴

1961 yilda yasalgan chang cholg‘usining tovush ko‘lami “sol” kichik oktavadan “do” to‘rtinchi oktavagacha yetkazildi. Changning tovush ko‘lami bir oktavaga kengayishi hisobiga cholg‘u hajmi ham biroz kattalashdi. Lekin bu changning yuqori registridagi tovushlarining zich va noqulay joylashishi sozandalar uchun ijroda qiyinchilik tug‘dirgan.

³⁴ Muallifning changchi sozanda Mahmud Alimatovdan yozib olgan suhbat 31.09.2005y.

Cholg‘u tovush ko‘lamini kengayib borishi tabiiyki uning o‘ziga xos jozibasi va milliy tarovatidan uzoqlashtirdi va changing bu namunasi iste’molga kirmadi. Tajribaxona arxivida saqlanayotgan 20.02.1961yilgi protokolda A. Petrosyans chang cholg‘usi ko‘lamini ortib borishi chang pikkologa ehtiyoj qolmasligini, undan ko‘ra changning oiladosh turlarini amaliyotda tadbiq etish uchun changchilar ansamblini tuzishni aytib o‘tgan. Tovush ko‘lami “sol” kichik oktavadan “sol” III-oktavagacha bo‘lgan va to‘g‘ri harakatlantiruvchi tepki mexanizmi o‘rnatilgan chang cholg‘usini keng qo‘llash lozimligini va bu bosqichda torlar va tovush ko‘lami muammolari vaqtincha ijobiy hal qilinganligini ta’kidlaydi.

Torlarni sadolantiruvchi cho‘plar ham zamon talablariga mos o‘zgarib boradi. “1925 yilgacha chang cholg‘usi yalang g‘arrov cho‘plarda (ba’zan uchi gajak ko‘rinishda bo‘lgan cho‘plarda), so‘ng uchiga mato o‘ralgan cho‘plarda ijro qilingan. 1935 yildan boshlab cho‘p uchiga rezina naychalar taqilgan.

Maqolada chang cholg‘usining texnik va dastlabki shakllaridan boshlab uning rivojlanish jarayoni, diapazon va tovush imkoniyatlarining kengaytirilishi, ijro uslublarining takomillashuvi, hamda O‘zbekiston musiqasida o‘rniga oid keng qamrovli tahlil berilgan. Changning tovush diapazonining oshirilishi, yangi turlarining yaratish, va ijro texnikasida amalga oshirilgan o‘zgarishlar, ayniqsa, o‘zbek xalq musiqasining boy repertuarini kengaytirishga yordam berdi. O‘zbekistondagi chang ijrochilari va ansambllari, shuningdek, xalq cholg‘ulari orkestridagi o‘rni, o‘zbek musiqasining jahon sahnasida tanilishini ta’minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, maqola chang cholg‘usining turli ijro uslublarini va ularning rivojlanish jarayonini, musiqa ta’limida olib borilayotgan innovatsion yondashuvlarni ham yoritib o‘tadi. Maqoladan chiqadigan xulosa shundaki, chang cholg‘usi nafaqat texnik imkoniyatlar bilan boyitildi, balki uning musiqiy va ijro tarixi ham o‘zining muhim o‘rnini egalladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Qodir o‘g‘li, M. S. (2025). *MILLIY MUSIQA–XALQ MADANIYATINING MA’NAVIY KO‘ZGUSI. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH*, 8(10), 107-109.
2. Qodir o‘g‘li, M. S. (2025). *MUSIQA O‘QITUVCHILAR DARSLARDA ILG‘OR TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH KO‘NIKMALARI. SO‘NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 8(9), 90-94.
3. Qodir o‘g‘li, M. S. (2025). *MUSIQA SAVODXONLIGI TUSHUNCHASI. FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES*, 3(36), 220-224.
4. Qodir o‘g‘li, M. S. (2025). *INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR TUSHUNCHASI. SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 3(32), 87-91.

5. Qodir o'g'li, M. S. (2024). INNOVATION TEKNOLOGIYALAR VA ULARNING MUSIQA TA'LIMIDA QO'LLANILISHI. *SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH*, 3(28), 68-71.
6. Qodir o'g'li, M. S. (2025). MILLIY MUSIQA–XALQ MADANIYATINING MA'NAVIY KO 'ZGUSI. *JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH*, 8(10), 107-109.
7. JURAKHONOVICH, G. J., & KARIMBERDIEVICH, R. K. Renewing the System of the Country and the Role and Significance of Art and Culture in Today's New Level of Modernization in Our Life. *JournalNX*, 6(05), 7-9.
8. Gaziyeu, J. J. (2021). STYLISTIC FEATURES OF THE WORK OF FRANZ JOSEPH HAYDN. In *AKTUAL'NYYE VOПРОСЫ СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ* (pp. 215-217).
9. Gaziyeu, J. J., & Toshmatov, G. O. (2021). Acts credit module system and its implementation activities in higher educational process. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(9), 467-472.
10. Gaziyeu, J. J., & Aliyeva, N. R. (2021). Dmitriy dmitrievich shostakovich life and work. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(10), 1181-1185.
11. Joraxanovich, G. J. (2023). Psychological Factors Of Musical Education. *JournalNX*, 9(11), 8-10.